

O‘ZBEKISTONDA TIL SIYOSATI VA UNING O‘ZBEK LUG‘ATCHILIGI RIVOJIGA IJOBIY TA’SIRI

Madvaliyev Abduvahob Pataxovich

filologiya fanlari nomzodi, professor

Saidnomanov Akmalxo‘ja Komiljonovich

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, katta ilmiy xodim

O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti

***Annotatsiya:** Maqolada davlatimizda til siyosati masalalari va uning o‘zbek tili lug‘atchiligiga ta’siri xususida so‘z boradi hamda bugungi kun lug‘atchiliklari yutuqlar haqda fikr yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** leksika, lug‘atchilik, leksikologiya, leksikografiya, terminologiya, lug‘at, izohli lug‘at.*

Muayyan tilning rivojlanishi jarayonida uning lug‘at tarkibi (leksikasi, jumladan, terminologiyasi) boshqa sohalarga qaraganda tez, sezilarli, jiddiy o‘zgarishlarga uchraydi. Buning obyektiv, ijtimoiy-siyosiy sabablari bor, albatta. Bu o‘zgarishlar leksikaning, terminologiyaning faqat miqdor jihatdan emas, balki sifat jihatdan ham rivojlanishini aks ettiradi. Leksikadagi taraqqiyot, o‘zgarishlar yangi lug‘aviy birliklarning paydo bo‘lishi va ma’lum lug‘aviy birliklarning yo‘q bo‘lishi (iste’moldan chiqishi), so‘zlarning yangi ma’nolar kasb etishi va ayrim ma’nolarining yo‘qolishi kabi hodisalardan iborat bo‘ladi. Bu jarayonda lug‘aviy birliklarning adabiy meyor (norma) ga bo‘lgan munosabatida, qo‘llanishi va boshqa xususiyatlarida turlicha o‘zgarishlar ro‘y beradi.

Albatta, hozirgi globallasuv davrida muayyan til (bu yerda – o‘zbek tili) leksikasi, lug‘at tarkibining boyib borishi, takomillashuvi shu tilning o‘z ichki imkoniyatlari doirasidagina amalga oshmaydi. Yuqoridagi kabi ekstralingvistik omillar bois tilimizning ko‘plab xorijiy so‘z va terminlar bilan boyib borishini ham tabiiy hol deb qabul qilish kerak. Chunki bunday so‘z va terminlar o‘zi anglatayotgan tushunchalar bilan birga kirib keladi. Demak, bunda ehtiyoj omilini ham e’tiborga olish kerak; sodda qilib aytganda, o‘zingda bo‘lmagan narsani qo‘shningdan so‘rashga majbur bo‘lasan. Tilimizda paydo bo‘lgan yuzlab, minglab xorijiy so‘z va terminlar ana shunday ehtiyojning natijasidir. Haqiqatan ham keyingi yillarda iqtisodiy-siyosiy sohadagi o‘zgarishlar, fan va texnikaning tobora rivojlanishi tilimizda brifing, geofond, geosiyosat, globallasuv, liberallashtirish, mentalitet, parlamentariy, reyting, sammit, spiker; avizo, auditor, broker, diler, investitsiya, infratuzilma, ipoteka, konsalting, lizing, marketing, monitoring, sanatsiya, tender; internet, kompyuter, noutbuk, peyjer, printer, server, fayl, faks kabi ko‘plab so‘zlarning keng qo‘llana boshlashiga sabab bo‘ldi.

Yuqoridagi kabi o'zgarishlar ma'lum darajaga yetganda, ularni nazariy va amaliy jihatdan aks ettiruvchi tadqiqotlarga ehtiyoj seziladi. bunday tadqiqotlar olib borilgan va olib borilmoqda. Amaliy ishlarning asosiylaridan biri esa turli tipdagi – tarjima, izohli, terminologik va tarixiy-etimologik lug'atlar tuzishdan iboratdir. Respublikaning Birinchi Prezidenti ham bir qator asarlarida, ma'ruzalarida ona tilini asrab-avaylash haqida tegishli ko'rsatmalar berish bilan birga, fan sohalari mutaxassislari, tilshunoslar oldiga zarur hollarda zamonaviy terminosistemalarni takomillashtirish, yo'qlarini ilmiy asosda ishlab chiqish, turli tipdagi lug'atlar tuzish kabi vazifalarni qo'ygan edi [1,86].

Shu nuqtayi nazardan aytish mumkinki, o'zbek leksikografiyasining shakllanish va rivojlanish tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Buyuk alloma Mahmud Koshg'ariy zamonidan to hozirgacha lug'atchiligimiz tarixida bir necha o'nlab qo'lyozma va bir necha yuzlab bosma lug'atlar yaratilgan va bu jarayon davom etmoqda. O'zbek amaliy leksikografiyasi sohasida erishilgan muayyan muvaffaqiyatlar bilan bir qatorda keyingi yillarda lug'atchilikning nazariy muammolariga – lug'atshunoslikka ham e'tibor qaratildi va izohli hamda ikki tilli lug'atlarning ma'lum leksikografik masalalarini hal etishda orttirilgan boy tajribani, shuningdek, bu sohadagi mavjud kamchiliklarni yoritishga bag'ishlangan bir qancha ilmiy ishlar ham amalga oshirildi. Bunday izlanishlarning natija va xulosalari tuzilajak lug'atlarning sifatini yaxshilashga yordam berishi shubhasiz.

Mustaqillik yillarida o'zbek tili leksikologiyasi, ayniqsa, leksikografiyasi sohasida ham muhim yutuqlarga erishildi. Xususan, lug'atchilik sohasidagi nazariy va amaliy izlanishlar diqqatga sazovordir. Besh jildli va olti jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati", kichik va o'rta hajmli bir necha o'nlab ikki tilli tarjima lug'atlarining, yuzdan ortiq bir, ikki yoki ko'p tilli terminologik lug'atlarning ayni mustaqillik yillarida yaratilganligi lug'atchilik sohasiga alohida e'tibor qaratilayotganligidan, shu sohaga qiziqish ortib borayotganligidan darak beradi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishuvi bilan til siyosatida jiddiy o'zgarishlar yuz berib, o'zbek adabiy tili ijtimoiy vazifalari doirasining mislsiz kengayishiga katta imkoniyatlar ochildi. O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, Davlat tili haqidagi qonunning qabul qilinishi, Qonun moddalarida qayd etilgan yo'l-yo'riq va vazifalar o'zbek tili taraqqiyotida yangi davrni boshlab berdi. Ayniqsa, o'zbek tilining ilmiy til, rasmiy uslub tili, pochta, telegraf, bank-moliya sohalari tili, ijtimoiy-siyosiy va diplomatik sohalari tili sifatidagi kommunikativ vazifasi keng rivoj topdi. Unda, birinchidan, tilimiz taraqqiyoti jarayonida uning o'z ichki imkoniyatlari asosida rivojlanishi qonuni to'la, erkin amal qila boshladi; ikkinchidan, respublikamiz hayotining barcha sohalari yuz berayotgan ulkan o'zgarishlar, rivojlangan juda ko'p mamlakatlar bilan har tomonlama aloqalarning

tobora kuchayib borayotganligi ham qisqa vaqt mobaynida o‘zbek tili, xususan, uning leksikasi va terminologiyasi rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Zikr etilgan omillar ta’sirida o‘zbek tili lug‘at tarkibida yuz bergan jiddiy o‘zgarishlar munosabati bilan hozirgi davr talablariga javob bera oladigan izohli lug‘at yaratish zaruratidan kelib chiqib, Respublika hukumatining maxsus qarori bilan o‘zbek tilining yangi, ko‘p jildli izohli lug‘atini tuzish va chop etish masalasi O‘zbekiston Respublikasi “Davlat tili haqida”gi qonunini amalga oshirish Davlat dasturiga kiritilgan va uni amalga oshirish O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti (hozirgi O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti) zimmasiga yuklangan edi.

Institutning yetakchi olimlaridan tashkil topgan ijodiy guruh 1998-yildan yangi izohli lug‘at ustida ish boshlab, uni 2006-yilda yakunladi; 300 bosma taboqdan ortiq hajmdagi besh jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” 2006–2008-yillarda “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti tomonidan to‘lig‘icha nashr etildi [2]. Ushbu lug‘at o‘zbek va jahon lug‘atchiligining boy tajribalarini, yangi, ijobiy yutuqlarini, O‘zbekiston mustaqilligi yillarida jamiyatimiz, xalqimiz hayotida ro‘y bergan tub o‘zgarishlar va shu munosabat bilan o‘zbek tili leksikasida sodir bo‘lgan yangiliklarni e’tiborga olgan holda yaratilgan lug‘atdir.

Besh jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” o‘zbek xalqi ijtimoiy-madaniy hayotida, o‘zbek tili va tilshunosligi tarixida ulkan hodisa hisoblanadi. Ushbu lug‘at, avvalo, respublikamizda mustaqillik yillarida olib borilayotgan til siyosatining, eng asosiysi, mamlakatimiz rahbarlarining va respublika hukumatining ziyolilarga, filologiya sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan olimlarga muttasil g‘amxo‘rligining ijobiy samarasi sifatida yuzaga chiqdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019-yil 21-oktabrdagi 5850-sonli “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 20-oktabrdagi 6084-sonli “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlarining e‘lon qilinishi hamda ushbu farmonlar asosida O‘zR Vazirlar Mahkamasi tarkibida Davlat tilini rivojlantirish departamentining tashkil etilishi, shuningdek, “2020 – 2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish kopsepsiyasi”ning qabul qilinishi bu g‘amxo‘rlikning yuksak cho‘qqisi bo‘ldi deyish mumkin.

Bu jarayonlar, albatta, o‘zbek lug‘atchiligi rivojiga ham yangi ulkan imkoniyatlar yaratib berdi. Natijada 2020-yilda besh jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ning tuzatilgan 2-nashri chop etildi [3]; bunda aksariyat so‘z va terminlarga berilgan izohlar mukammallashtirilgan, ba’zi noaniq jummalarga aniqlik kiritilgan, ayrim izohlar mavjud talablar asosida yangilangan. 2022-yilda esa O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti olimlari tomonidan lotin yozuviga asoslangan

o‘zbek alifbosida olti jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” tuzildi va to‘lig‘icha nashr etildi [4]. Ushbu lug‘atda avval nashr etilgan izohli lug‘atlarga kirmay qolgan lug‘aviy birliklar – so‘z va terminlar, iboralar, shuningdek, illustrativ materiallar aks ettirilgan, ko‘plab so‘z va terminlarning yangi ma‘nolari aniqlangan, ularga berilgan izohlar yanada mukammal holga keltirilgan.

Mazkur lug‘atlarning ilmiy qimmatini shundaki, u hozirgi o‘zbek adabiy tili so‘z boyligini o‘zida mujassam qilgan, o‘zbek tilining dunyodagi eng rivojlangan tillardan biri ekanini namoyish qiluvchi va bu holatni konkret dalillar asosida tasdiqlovchi muhim manbadir. Ushbu izohli lug‘atlarning nazariy asosi va ilmiy tamoyillari, so‘z ma‘nolarini talqin qilish usullari o‘zbek tilining ikki tilli tarjima, terminologik va boshqa xil lug‘atlarini tuzishga barakali ta‘sir ko‘rsatdi.

Yangi izohli lug‘atlar ulkan amaliy, madaniy-ma‘rifiy qimmatga ega. Unga o‘z ona tiliga mehr-muhabbati bo‘lgan, ona tilining, undagi so‘zlarning sir-asrorlari, imloviy va uslubiy xususiyatlari bilan qiziqqan har qanday o‘zbek ziyolisi, o‘zbek tilini o‘rganish ishtiyoqida bo‘lgan har qanday o‘zga til vakili murojaat qilishi mumkin. Shuningdek, bu lug‘atlar ta‘lim tizimida, nashriyot va matbuot sohasida, adabiyot, san‘at va ilm-fan sohalarida faoliyat ko‘rsatayotgan har bir kishining doimiy hamrohi bo‘lib qolganiga, har bir o‘zbek ziyolisining kitob javonidan o‘rin olganiga ishonchimiz komil. Shuning uchun ham mazkur izohli lug‘atlar matbuot sahifalarida, ularning butun respublika bo‘ylab o‘tkazilgan taqdimotlarida bugungi o‘zbek tili leksikasining oynasi sifatida baholandi va so‘zlar izohi o‘zbek leksikologiyasi va leksikografiyasining so‘nggi yutuqlariga asoslanganligi bilan ilmiy jamoatchilikning tahsiniga sazovor bo‘ldi.

Besh jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” chop etilganidan keyin O‘zbekistonda lug‘atchilik, shu jumladan, ikki tilli lug‘atlar tuzish sohasida bajarilayotgan barcha muhim va yirik ishlar, tashabbuslar milliy tilning katta izohli lug‘ati bilan, V.G.Gakning ta‘biri bilan aytganda, “lug‘atning eng muhim, asosiy turi” [5] bilan bog‘liq holda amalga oshiriladigan bo‘ldi. Chunki yangi izohli lug‘at hozirgi o‘zbek tilida nisbatan keng iste‘molda bo‘lgan bir necha o‘n minglab so‘z va so‘z birikmalarini, jumladan, fan, texnika, san‘at va madaniyat sohalariga oid terminlarni, bir necha shevalarda qo‘llanadigan so‘zlarni, ba‘zi tarixiy va eskirgan atamalarni qamrab olganligi bilan ko‘plab leksikologik tadqiqotlarga, yangidan-yangi tarjima lug‘atlariga manba bo‘lib xizmat qiladi.

Agar mustaqillik davrigacha O‘zbekistonda ikki tilli tarjima lug‘atlarining asosan ruscha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-ruscha turiga katta e‘tibor berilgan bo‘lsa, mustaqillik davrida kichik hajmli ruscha-o‘zbekcha va o‘zbekcha-ruscha, turli hajmdagi arabcha-o‘zbekcha, forsha-o‘zbekcha, turkcha-o‘zbekcha, koreyscha-o‘zbekcha, yaponcha-o‘zbekcha, xitoycha-o‘zbekcha, urducha-o‘zbekcha, inglizcha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-inglizcha va boshqa ikki tilli lug‘atlar tuzilib,

ularning soni tobora ortib bormoqda. Xususan, A. Irisqulov va Sh. Bo'tayevlar hamkorligida 10 dan ortiq turli hajmdagi inglizcha-o'zbekcha va o'zbekcha-inglizcha lug'atlar [6], akademik N.Ibrohimov rahbarligi ostida va ishtirokida yaratilgan va 100 ming so'zni qamrab olgan to'rt jildli "Al-qomus. Arabcha-o'zbekcha qomusiy lug'at" [7] tuzilib chop etildi hamda keng kitobxonlar ommasiga xizmat qilmoqda.

Fan, texnika, ishlab chiqarish, ijtimoiy hayotdagi jiddiy o'zgarishlar va bu o'zgarishlarning tilda ifoda etish zarurati tufayli yangidan-yangi terminlar vujudga kelmoqda. Har bir sohada uchraydigan bunday terminlarni ilmiy tahlil qilib borish, ularni tartibga solish terminologiyaning asosiy vazifasidir. Bu vazifani amalga oshirishning asosiy yo'llaridan biri mukammal terminologik lug'atlar tuzishdir. Terminologik tizimlarning, terminologik lug'atlarning mukammal bo'lishi esa ko'p jihatdan turli soha mutaxassislarining tilshunoslar bilan ilmiy hamkorligiga bog'liqdir. Keyingi yillarda 10 dan ortiq soha bo'yicha yaratilgan va chop etilgan terminologik izohli lug'atlar fikrimizning isbotidir.

Umuman olganda, umumadabiy til izohli lug'atlari, terminologik izohli lug'atlar har qanday terminologik tizimning shakllanishidan to hozirgi holatiga qadar rivojlanish xususiyatlarini, sohalar terminologiyasidagi tizimli munosabatlarni tahlil qilish, so'z va terminlarning turli tarixiy davrlardagi qo'llanish xususiyatlarini o'rganish imkoniyatini beradi.

Adabiyotlar

1.Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 86–87.

2.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006 – 2008.

3.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли. Тузатилган 2-нашр. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020.

4.O'zbek tilining izohli lug'ati. Olti jildli. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.

5.Гак В. Г. О некоторых закономерностях развития лексикографии (учебная и общая лексикография в историческом аспекте) // Актуальные проблемы учебной лексикографии. – М., 1977. – С. 12.

6.Butayev Sh., Irisqulov A. Inglizcha-o'zbekcha, o'zbekcha-inglizcha lug'at. 30 ming so'z. – Toshkent: O'zDJTU, 2004; Butayev Sh. Inglizcha-o'zbekcha, o'zbekcha-inglizcha lug'at. 80 ming so'z va ibora. – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.

7.Ал-қомус. Арабча-ўзбекча қомусий луғат. – Тошкент: Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017 – 2022.